

“MARKAZIY OSIYO: UMUMIY MA’NAVIY-MA’RIFIY MEROS – UMUMIY KELAJAK” MAVZUSIDAGI XALQARO KONGRESS ISHTIROKCHILARIGA

Qadrlı do'stlar!

Avvalambor, Siz, azizlarni — Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Ozarbayjondan tashrif buyurgan taniqli olim va tadqiqotchilar, madaniyat va san'at namoyandalari, xalqaro tashkilotlar vakillarini, boy ma'naviy-ma'rifiy merosimizning dolzarb masalalariga bag'ishlangan birinchi xalqaro kongressning barcha ishtirokchilarini samimiy qutlashdan g'oyat mamnunman.

Ma'lumki, azaliy do'stlik va qardoshlik rishtalari bilan bog'langan Markaziy Osiyo davlatlari hamda Ozarbayjon xalqlarini umumiy tarix va madaniyatimiz, boy ma'naviy va ilmiy merosimiz yanada birlashtirib keladi.

Mamlakatimiz hududida yashab ijod qilgan buyuk tafakkur sohiblari dunyoni bilim va ma'rifat nuri bilan munavvar etib, fundamental asarlari, mashhur ilmiy kashfiyotlari orqali jahon taraqqiyotiga munosib hissa qo'shanlar.

Mazkur anjuman yangi barpo etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib o'tayotgani albatta bejiz emas. Ushbu muazzam majmuada uch ming yildan ziyod shonli tarix, jumladan, mintaqamiz zaminidagi Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarini, shuningdek, Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti va

kelajagini mujassam etgan noyob intellektual-ma'naviy maskanda Sizlar bu haqiqatni yaqqol his qilishingiz mumkin.

Hurmatli kongress ishtirokchilari!

Turli mintaqalarda ziddiyat hamda qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab davrda tinchlik va barqarorlikni saqlash, har bir ishda ilm va ma'rifatga tayanish, turli xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik muhitini mustahkamlash, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirish barchamizning eng dolzarb vazifamiz bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda bu borada katta islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda qariyb 500 ta yangi umumta'lim maktabi barpo etilgani, oliy o'quv yurtlarining soni 77 tadan 202 taga yetgani, Prezident maktablari, buyuk olim va mutafakkirlar nomlari bilan ataladigan ijod maktablari faoliyat ko'rsatayotganini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Xalqaro hamkorlarimiz bilan ma'naviy-ma'rifiy merosni saqlash bo'yicha tajriba va fikr almashish, birgalikdagi qo'shma tadqiqot va loyihalarining ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish bundan keyin ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Sizlarning ishtirokingizda Markaziy Osiyodagi islom sivilizatsiyasining global

ma'rifatchilik harakati, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasini e'tirof etish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi loyihasini ishlab chiqsak, bu borada katta amaliy qadam bo'ladi. Biz kelgusi yili BMTning Bosh qarorgohida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va ma'naviy merosiga bag'ishlab tashkil etiladigan taqdimot doirasida mazkur rezolyutsiyani qabul qilish bo'yicha alohida tadbir o'tkazishni rejalashtirganmiz.

Buyuk tarixga ega Markaziy Osiyoning ilm-fan va ma'rifat markazi sifatidagi o'rmini yanada mustahkamlash uchun birgalikda samarali ish olib borishimiz zarur va bu sharaflı yo'lda barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga tayyormiz.

Bugungi anjuman kelgusida ham doimiy o'tkazilib, ilmiy-madaniy hayotimizda samarali muloqot maydoniga aylanishiga ishonaman.

Barchangizga mustahkam sog'liq, sharaflı faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, kongress ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

QOZOG‘ISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN O‘ZBEKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 14-16-noyabr kunlari davlat tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, oliy darajadagi muzokaralar hamda O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Kun tartibidagi asosiy mavzu — savdo, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika, energetika, qishloq xo'jaligi, suv resurslari, madaniy-gumanitar loyihalar

kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirish.

Mintaqaviy va global siyosatning dolzarb masalalari, ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashiladi.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi va qator qo'shma loyihalarni ishga tushirish, O'zbekiston — Qozog'iston strategik

sheriklik hamda ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatlar to'plamini imzolash ko'zda tutilgan.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida ham ishtirok etadi.

O'ZA

TEMIR YO‘L TARMOG‘INI MODERNIZATSIYA QILISH BO‘YICHA LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga temir yo‘l sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi yillar uchun rejalar taqdimot qilindi.

Temir yo‘l tarmog‘ida boshlangan keng ko‘lamli transformatsiya jarayonlari o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi. O‘tgan yilni tarmoq ilk bor sof foyda bilan yakunladi, joriy yilning birinchi to‘qqiz oyida sof foyda 800 milliard so‘mdan oshdi. Transitzit va yo‘lovchi tashish, eksport va investitsiya hajmlari o‘shib bormoqda.

Taqdimotda bu natijalar bilan cheklanmay, aholi soni va iqtisodiyot o‘shishiga mos ravishda temir yo‘l transporti xizmatlarining sifati hamda qamrovini kengaytirish, tarmoqda xarajatlarni qisqartirishni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

Xususan, transport hisobidan boshlab, harakat oqimigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda sun‘iy intellekt asosida nazorat o‘rnatish orqali xarajatlarni tahlil qilish, yo‘l qo‘yilayotgan yo‘qotishlarni aniqlash va shu asosda tannarxni 20 foizga kamaytirish mumkinligi qayd etildi.

2026-2030-yillarda yo‘lovchi va yuk tashish hajmini kamida ikki barobarga oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Buni ta'minlash uchun 151 kilometr yangi temir yo‘l qurish, 182 kilometr masofadagi yo‘llarni elektrlashtirish, shuningdek, 27 ta mavjud stansiya va ming kilometr yo‘lni modernizatsiya qilish rejalarini haqida ma'lumot berildi.

Jumladan, “Nurafshon — Pskent — Bo‘ka — Bekobod — Boyovut — Yangiyer” va “Xovos — Dashtobod” yo‘nalishlarida elektrlashtirilgan yangi temir yo‘llar quriladi. “Qumqo‘rg‘on — Quduqli”, “Samarqand — Urgut” va “Baytqo‘rg‘on — Parkent” yo‘llarini elektrlashtirish, “Toshkent — Samarqand”, “To‘qimachi — Angren” va “Angren — Pop” yo‘llarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish rejalashtirilgan.

Respublika bo‘ylab shaharlar atrofida qatnaydigan poyezdlar harakatini faollashtirish maqsadida mavjud 40 ta yo‘nalishga qo‘shimcha yana 15 ta yangi yo‘nalish ochish taklif qilindi.

Xususan, “Toshkent — Nurafshon — Ohangaron — Angren”, “Navoiy — Zarafshon — Uchquduq”, “Qo‘qon — Namangan — Andijon — Marg‘ilon”, “Termiz — Qumqo‘rg‘on — Boysun — Darband”, “Nukus — Shovot — Urganch — Xiva”, “Jizzax — Do‘stlik — Aydar-Arnasoy ko‘li”, “Qarshi — Shahrisabz” kabi yo‘nalishlarda shahar atrofi qatnovlarini yo‘lga qo‘yish orqali aholining kundalik safarlari uchun qulay sharoit yaratilishi qayd etildi.

Yig'ilishda yuqori tezlikda harakatlanuvchi tarmoqni kengaytirish masalasiga ham to'xtalib

o'tildi. Uzunligi 102 kilometrlik “Navoiy — Buxoro” temir yo‘li liniyasini foydalanishga kiritishni jadallashtirish topshirildi. Bu yo‘lning ishga tushishi yuk va yo‘lovchi tashishda vaqt va xarajatlarni sezilarli qisqartirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Kelgusi yillarda yangi ochiladigan yo‘nalishlar va qurilayotgan yo‘llar uchun lokomotiv va vagonlar parkini kengaytirish bo‘yicha ham rejalar bayon etildi.

Jumladan, Xitoydan 38 ta magistral lokomotiv, 50 ta manyovrlı lokomotiv va gibrıd manyovrlı lokomotiv xarid qilish nazarda tutilgan. Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasi bilan hamkorlikda 6 ta yuqori tezlikdagi elektropoyezd olib kelib, ulardan birinchisini kelgusi yilda “Toshkent — Urganch — Xiva” yo‘nalishida qatnovga qo‘yish topshirildi. Bu orqali yo‘nalishda yo‘l vaqti hozirgi 14 soatdan 7,5 soatgacha qisqarishi kutilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda 250 ta zamonaviy yo‘lovchi vagonlarini qurish, shaharlararo qatnaydigan 23 ta elektr poyezdini xarid qilish orqali yo‘lovchilarga sharoitlar kengaytiriladi. 10 mingta yuk vagonlarini qurish, 6 mingdan ziyodini tiklash hamda 12

Ilhom ALIYEV: “O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON QARDOSH MAMLAKATLAR, ISHONCHLI ITTIFOQCHILARDIR”



Toshkent shahrida bo‘lajak Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi oldidan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan intervyu tashkil qilindi.

— Hurmatli janob Prezident, Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida ishtirok etishingiz kutilayapti. Ushbu format haqida qanday fikrdasiz? Ozarbayjonning mintaqa davlatlari bilan aloqalari qay tusda rivojlanmoqda va hamkorlikning bugungi darajasi Sizni qoniqtiradimi?

— Avvalo, ta'kidlamoqchiman, bu Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvida faxriy mehmon sifatida uchinchi bor ishtirok etishim. Men qatnashgan birinchi shunday tadbir 2023-yil Dushanbeda, ikkinchisi 2024-yil Ostonada bo'lib o'tgan. Navbatdagi muloqotga Toshkent mezonlik qiladi. Barcha hamkasblarim, ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti, birodarim Shavkat Mirziyoyevga taklif hamda Ozarbayjonning ushbu muhim tadbirida ishtirokini qo'llab-quvvatlagani uchun samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlari strategik ahamiyati tobora ortib borayotgan umumiy tarixiy-madaniy, geografik va geosiyosiy makonni barpo etmoqda. Bir qarashda Ozarbayjonnı Markaziy Osiyo davlatlaridan ajratib turgan Kaspiy dengizi, aslida, davlatlarimizni jipslashtiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bugun ushbu dengiz shunchaki geografik tushuncha emas, balki strategik birlik, iqtisodiy salohiyat va xalqlarimizning tarixiy hamkorligi ramzidir.

Mamlakatlarimizni nafaqat geografik yaqinlik, balki tarixiy-madaniy aloqalar, mustarak diniy va ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar birlashtirib turadi.

Ozarbayjon mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan hamkorlikni eng yuqori darajada har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Ikki tomonlama o'rnatilgan mazkur strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari, shuningdek, faol siyosiy muloqotimiz, o'zaro tashriflarimiz ushbu jarayon muvaffaqiyatli kechishida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblayman.

So'nggi bir necha yil ichida davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari va muloqotlari dinamikasi munosabatlarimiz yuqori darajada ekanini yaqqol namoyon etmoqda. Xususan, oxirgi 3 yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Ozarbayjonga 30 ga yaqin tashrifni amalga oshirdi, men esa xuddi shu davrda qardosh mamlakatlarga 13 marta bordim.

O'ra yo'lakning ahamiyati ortib borayotgani sheriklik ko'lamini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

Ishonchim komilki, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 7-Maslahat uchrashuvi qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlik rishtalarini mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy, transport, investitsiya, energetika, madaniy-gumanitar va raqamli transformatsiya sohalaridagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishda muhim bosqich bo'ladi.

— Muhtaram Prezident, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro tashriflar jadallashgani, faol siyosiy muloqot yo'lga qo'yilib, o'zaro anglashuv yuksak darajaga ko'tarilganini ta'kidladimgiz. So'nggi bir yarim yil ichida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonga 5 marta tashrif buyurdi. Qolaversa, yil davomida turli xalqaro maydonlarda ham bir necha bor uchrashdimgizlar. Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabat o'rnatilganining 30 yilligi nishonlanayotgan joriy yildagi ikki tomonlama aloqalar holatini qanday baholaysiz?

— O'zbekiston — Ozarbayjon uchun qardosh mamlakat, ishonchli ittifoqchi. Bizni mustarak ildizlar, ma'naviy qadriyatlar, til, etnik yaqinlik, boy tarixiy va madaniy meros birlashtirib turadi. Asrlar davomida qardosh xalqlarimiz o'zaro iliq munosabatda bo'lib, bir-birini chuqur hurmat qilgan. Bugun davlatlararo munosabatlarimiz ana shu mustahkam poydevor asosida muvaffaqiyatli rivojlanib borayotgani quvonarli, albatta.

Hozirga kelib, Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar eng yuqori — ittifoqchilik darajasiga ko'tarilgan.

Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bilan o'rnatimda shakllangan ishonchli va do'stona shaxsiy munosabatlar ham ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston yetakchisining davlatlararo munosabatlarimiz rivojiga qo'shayotgan shaxsiy hissasi, keng ko'lamli hamkorlikni izchil mustahkamlash masalalariga qaratayotgan doimiy e'tiborini alohida ta'kidlamoqchiman.

Qardosh O'zbekiston rahbari, atqoli davlat arbobi, Ozarbayjonning yaqin do'sti Prezident Shavkat Mirziyoyevni yurtimizda qabul qilish biz uchun doim katta sharaf va mamnuniyat bag'ishlaydi. Qayd etganingizdek, o'tgan bir yarim yil davomida bunday tashriflar besh marta yuz berdi. Bularning bari munosabatlarimizning yuqori sur'atidan dalolat.

Davomi 2-betda

TOSHKENT MA’NAVIY MAYDONI MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJONNI BIRLASHTIRDI

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida “Markaziy Osiyo: umumiy ma’naviy-ma’rifiy meros — umumiy kelajak” mavzusidagi xalqaro kongress ish boshladi.

Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha butunjahon jamiyati (WOSCU), Fanlar akademiyasi hamda Markaziy Osiyo xalqaro instituti hamkorligida

tashkil etilgan yig'inda 300 ga yaqin olim va san'atshunos, ta'lim sohasi vakillari ishtirok etmoqda.

Davomi 2-betda

UNESConing TARIXIY SAMARQAND FORUMI O‘Z ISHINI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLADI

So'nggi 40 yil ichida ilk bor UNESCO Bosh qarorgohidan tashqarida – ko'lna va hamisha navqiron Samarqand zaminida bo'lib o'tgan yubiley sammitda 180 dan ortiq davlatdan 4,6 ming vakil ishtirok etdi. Bu UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyalarida shu paytgacha eng ko'p vakil qatnashgan tadbir sifatida ham e'tirof etildi.

Davomi 5-betda

O'ZA

Ilhom ALIYEV:

“O‘ZBEKISTON VA OZARBAYJON QARDOSH MAMLAKATLAR, ISHONCHLI ITTIFOQCHILARDIR”

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yil avgust oyida men davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda, shu yil iyul oyida esa O‘zbekiston Prezidenti Ozarbayjonda bo‘ldi. Ushbu tarixiy tashriflar doirasida o‘nlab, jumladan, Strategik sheriklikni yanada mustahkamlash to‘g‘risidagi deklaratsiya, Ozarbayjon Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va boshqa muhim hujjatlar imzolandi. O‘tgan qisqa davr mobaynida ulkan ishlar bajarildi. O‘zaro tashriflarning hammasi Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlarini barcha sohalarida mustahkamlash, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqasini o‘z ichiga olgan yagona geografik makonda sheriklikning yangi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga kuchli turtki berdi.

Munosabatlarimizni rivojlantirish strategiyasini belgilashda 2023-yil avgust oyida ta‘sis etilgan Oliy davlatlararo kengash ham alohida o‘rin tutadi. O‘zaro davlat tashriflari doirasida — 2024-yil 22-avgust kuni Toshkentda va 2025-yil 2-iyulda Bokuda ushbu tuzilma yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini doimo qo‘llab-quvvatlab kelgan. Fursatdan foydalanib, qardosh O‘zbekistonga Qorabog‘ni tiklash, xususan, Fuzuliya hozir 600 nafarga yaqin o‘quvchi tahsil olayotgan buyuk o‘zbek olimi Mirzo Ulug‘bek nomidagi maktab qurilishiga qo‘shgan hissasi uchun minnatdorlik bildiraman. O‘zbekiston Qorabog‘ mintaqasini tiklashda yordam ko‘rsatish tashabbusi bilan chiqqan dunyodagi birinchi davlat bo‘ldi. Biz buni mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi hamjihatlik, do‘stlik, birodarlik ifodasi sifatida doimo yodda saqlaymiz.

Qardosh mamlakatga bo‘ljak tashrifni intizorlik bilan kutypman. Har safar

O‘zbekistonning jadal rivojlanishini, mamlakat xalqi erishayotgan ulkan yutuqlarni behad mamnunlik bilan kuzataman. Keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil modernizatsiya qilinayotgani mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va mavqei yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Bu yutuqlar do‘stim va birodarim Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va puxta o‘ylangan davlat siyosati samarasidir.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat ikki tomonlama formatda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ozarbayjon va O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotining faol a‘zolari hisoblanib, turkiy birlikni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari, munosabatlarimiz BMT, Qo‘shilmaslik harakati, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, OHCHK va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida ham samarali tus olgan.

Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning bugungi darajasini qanday baholaysiz?

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi dinamikasidan to‘liq qoniqish mumkin. Har ikki tomon o‘zaro aloqalarni kengaytirish uchun katta ishlar qilmoqda, yangi loyihalarni, qo‘shma tashabbuslar ilgari surishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bugungi kunda Ozarbayjonda O‘zbekiston investitsiyasi ishtirokidagi 120 ga yaqin tijorat tashkiloti ro‘yxatdan o‘tgan holda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo jadal sur‘at bilan rivojlanmoqda. Xususan, 2024-yil o‘zaro tovar ayiribsohash

hajmi 252 million dollarni tashkil etdi, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 87,5 foiz o‘sib, 319 million dollarga yetdi.

Sarmoyaviy hamkorlik mustahkamlanmoqda. Bugungi kunga qadar O‘zbekiston Ozarbayjon iqtisodiyotiga 21,8 million dollar sarmoya kiritgan, Ozarbayjon esa O‘zbekiston iqtisodiyotiga 183,5 million dollar investitsiya yo‘naltirgan. 2023-yil umumiy kapitali 500 million dollarlik, ham mamlakatlarimiz hududida, ham uchinchi davlatlarda loyihalar amalga oshirishni ko‘zda tutgan Ozarbayjon — O‘zbekiston qo‘shma investitsiya kompaniyasi tashkil etildi.

Yengil sanoatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratayotgan, an‘anaviy do‘stlik va qardoshlik rishtasini mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan Xonkendidagi qo‘shma korxona — tikuvchilik fabrikasi ham alohida e‘tiborga loyiq.

Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish orqali sheriklikning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda Ozarbayjon Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya faoliyatini e‘tirof etish lozim. Muntazam o‘tkazib kelinayotgan Ozarbayjon — O‘zbekiston mintaqaviy forumi ayni yo‘nalishdagi hamkorlikni rivojlantirish uchun samarali platformaga aylandi.

Ozarbayjon qardosh O‘zbekiston bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor. Buning uchun yuksak siyosiy iroda va ulkan salohiyat mavjud. Bugungi kunga qadar iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish uchun ishonchli huquqiy asos yaratgan 200 ga yaqin hujjat imzolangan. Ozarbayjon bundan keyin ham ikki tomon manfaatlariga mos keladigan, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklikni mustahkamlashga xizmat qiladigan hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Transport, logistika va energetika sohalarida ikki tomonlama hamkorlikning qanday istiqbollarini ko‘ryapsiz?

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri diversifikatsiyalangan transport-logistika infratuzilmasini yaratish va tranzit imkoniyatini kengaytirishdir. Bu borada mamlakatlarimizning “O‘rta yo‘lak” xalqaro transport yo‘lagidagi ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda Ozarbayjon O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim tranzit davlat hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘lak orqali eksport imkoniyati va tashuv salmog‘ini oshirish masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda.

2024-yil mamlakatlarimiz o‘rtasidagi tranzit tashuv 2023-yilga nisbatan 18 foizdan ko‘proq oshib, 1 million 300 ming tonnadan ortdi. 2025-yilning to‘qqiz oyidayoq bu ko‘rsatkich qariyb 1 million tonnaga yetib, transport almashinuvi jadal o‘sib borayotganini ko‘rsatdi.

Ozarbayjonda yaratilgan zamonaviy transport infratuzilmasi, jumladan, savdo floti, yaqin yillarda quvvati 25 million tonnaga yetadigan “Alat” xalqaro savdo porti, Boku — Tiblisi — Qars temir yo‘li, shuningdek, mamlakatning to‘qqiz xalqaro aeroporti global transport va logistika markazi sifatidagi o‘rnimizni mustahkamlovchi omillardir. Bundan tashqari, Zangezur yo‘lagi ochilishi ham Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlariga foyda keltiradi.

Shaharlarimiz o‘rtasidagi aviaparvozlarni muhim ahamiyatga ega. “AZAL” aviakompaniyasi haftasiga Boku — Toshkent — Boku yo‘nalishida 7 marta, Boku — Samarqand — Boku hamda Boku — Urganch —Boku yo‘nalishlarida 2 marta dan yo‘lovchi reystrarini amalga oshirmoqda. O‘z navbatida, bir haftada “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasi samolyotlari Toshkent —

Boku — Toshkent yo‘nalishi bo‘ylab 3 marta, “Centrum” kompaniyasi uchoqlari esa 2 marta uchaypti.

Energetika sohasidagi hamkorlik va “yashil” energetikani rivojlantirish ham ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. “SOCAR” O‘zbekistonga Ozarbayjon neft va neft-kimyo mahsulotlari eksport qiladi. 2016-yildan buyon “Ozlitneftgaz” instituti va “SOCAR NIPi Neftgaz” negizida tashkil etilgan “Neftgaztexnologiya” qo‘shma korxonasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

2024-yil Ozarbayjon, Qozog‘iston va O‘zbekiston energetika tizimlarini integratsiyalash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan qator strategik bitim va memorandumlarni imzoladi. Bu mintaqani barqaror rivojlantirish va energetika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun yangi istiqbollar ochadi.

Ozarbayjon va O‘zbekistonning madaniy-gumanitar sohadagi hamkorligi haqida nima deya olasiz?

Madaniy-gumanitar hamkorlik mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlikni mustahkamlash, xalqlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biz umumiy tarixiy-madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash yo‘lida birga odimlab, barcha darajalarda yaqin hamkorlikni davom ettiryapmiz.

Xususan, 2023-yil Ozarbayjonda O‘zbekiston madaniyati kunlari, 2024-yil O‘zbekiston fan va madaniyat kunlari o‘tkazildi. Shu yil O‘zbekistonda Ozarbayjon madaniyati kunlari, Xiva shahrida “Shusha kunlari” tashkil etildi. Ushbu tadbirlar xalqlarimizning boy madaniy merosini namoyon etish, o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash va bir-birimizning ma‘naviy olamimizni boyitishga bo‘lgan yakkil intilishni aks ettiradi.

Mamlakatlarimiz hududlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida

e‘tibor qaratilmoqda. Ismoil — Rishton, Shusha — Xiva, Lankaran — Buxoro, Sheki — Qo‘qon, Bilasuvor — Termiz, Mingachevir — Namangan, Fuzuliy — Guliston, Quba — Jizzax, Beylagan — Shahrisabz shaharlari o‘rtasida birodarlik va sheriklik aloqalari o‘rnatildi. Hududlararo aloqalar faollashuvi xalqlarni yaqinlashtirish, tajriba almashish va hamkorlikning madaniy-gumanitar kun tartibini boyitishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikning ramziy ifodasi sifatida madaniy ahamiyatga ega obyektlar mavjud: Toshkentda Haydar Aliyev maydoni bor. Shu yil iyul oyida Bokuda “O‘zbekiston” bog‘iga tamal toshi qo‘yildi.

Fursatdan foydalanib, Ozarbayjon xalqining umummilliy yetakchisi Haydar Aliyev xotirasiga ko‘rsatilayotgan ehtirom, chin birodarlik munosabati uchun O‘zbekiston rahbariyati va butun qardosh o‘zbek xalqiga minnatdorlik bildirilmogchiman.

Sport sohasidagi hamkorlikda ham yaxshi natijalarga erishilmoqda. Ikki davlatning birgalikdagi sa‘y-harakatlari natijasida FIFA Ijroiya qo‘mitasi 2027-yil bo‘lib o‘tadigan U-20 Jahon chempionati final bosqichini Ozarbayjon va O‘zbekistonda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Bu Yevropa va Osiyoni birlashtiradigan umumiy tarixiy yutug‘imizdir.

Ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik ham samarali rivojlanmoqda. 2024-yil 23-25-sentabr kunlari Toshkentda birinchi O‘zbekiston — Ozarbayjon mediaforumi, joriy yil 29-sentabrda Bokuda ikkinchi Ozarbayjon — O‘zbekiston mediaforumi bo‘lib o‘tdi. Bundan tashqari, 2024-yil dekabr oyida Toshkentda ilk bor O‘zbekiston va Ozarbayjon nodavlat tashkilotlari forumi tashkil etildi.

Mazkur tadbirlar va alohida oshirilgan loyihalarining barchasi Ozarbayjon va O‘zbekistonning madaniy-gumanitar sohadagi mustahkam qardoshlik aloqalarini yaqqol namoyon etib, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash, ma‘naviy va madaniy hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Janob Prezident, ushbu mazmunli suhbat uchun tig‘iz ish jadvalingizdan vaqt ajratganingiz uchun rahmat.

O‘zbek xalqining Ozarbayjon — O‘zbekiston munosabatlari va umuman, mintaqada ro‘y berayotgan jarayonlarga qiziqishi tobora ortib borayotgani menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi. Asrlar davomida qardosh xalqlarimiz va mamlakatlarimizni bog‘lab kelgan do‘stlik va hamkorlik rishtalari bardavom bo‘lsin.

O‘ZA



Nosirjon HAYDAROV o‘lgan surat.

TOSHKENT MA’NAVY MAYDONI MARKAZIY OSIYO VA OZARBAYJONNI BIRLASHTIRDI

Boshlanishi 1-betda

Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini Prezident maslahatchisi Ruslanbek Davletov o‘qib eshittirdi.

Aytish joiz, mazkur forum xalqaro tashkilotlar, diplomatik korpus, ilmiy va madaniy muassasalar vakillari, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamda Ozarbayjondan kelgan olimlar, san‘at arboblari birlashtirgan.

Tadbirdan ko‘zlangan asosiy maqsad mintqa xalqlari ma‘naviy va ilmiy merosini ifodalash uchun mislsiz kuch, imkoniyat va sa‘y-harakat kerak. Binobarin, ushbu markaz yo‘laklari bo‘ylab sayr qilarkanmiz, bu maskanda ulkan ishlar qilinganiga guvoh bo‘ldik. Ushbu markaz nafaqat mintqa, balki butun jahon hamjamiyati uchun foydali deb o‘ylayman.

Bo‘ljak muhokama, muvazalar Markaziy Osiyo va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasida ma‘naviy hamkorlikning yangi sahifasini ochadi. Taklif etilgan g‘oya va tashabbuslar barqaror taraqqiyot, o‘zaro hurmat va ma‘naviy yuksalish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Kongress aynan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida o‘tkazilishi ramziy ahamiyatga ega. Bu noyob majmau mintaqaning uch ming yillik tarixi, Renessans davrlari va Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonini mujassam etgan. Majmau sivilizatsiya merosini o‘rganish, yoshlarni tarbiyalash va xalqaro madaniy hamkorlikni mustahkamlash maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning madaniy boyliklari — butun insoniyat mulki, — deydi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxolliqov O‘ZA muxbiriga bergan intervyusida. — Biz, tadbir qatnashchilari nafaqat o‘likimiz, balki butun Markaziy Osiyo va Ozarbayjon madaniy merosi haqida, buyuk ajdodlarimiz jahon sivilizatsiyasi

rivojiga qanday hissa qo‘shgani xususida gaplashamiz. Ushbu markazni barpo etishda dunyoning qariyb 40 mamlakatidan kelgan olimlar ishladi. Bu 800 loyihani amalga oshirgan bir yarim mingga yaqin olim, degani. Bundan tashqari, quruvchi, me‘mor, dizaynerlar mehnatini ham e‘tirof etamiz.

Anjuman avvalida markaz muzeyi bilan tanishgan mehmonlarga majmau haqidagi hujjatli film namoyish etildi. Shundan so‘ng tadbir Markaziy Osiyo va Ozarbayjon Madaniyat vazirlilari, Fanlar akademiyalari, din sobasi vakillari, milliy muzeylar va kutubxonalar, kino agentliklari, Badiiy akademiyalar, Yozuvchilar uyushmalari va Yoshlar ishlari agentliklari rahbarlari ishtirokidagi sho‘ba yig‘ilishlari bilan davom etdi.

Bilasizmi, islom sivilizatsiyasi shunchalik boyki, bu ilmini to‘liq qamrab olish, tasvirlashning imkoniy yo‘nede, — dedi Ozarbayjon madaniyat vaziri Odil Karimil. — Islom tarixi bilan bog‘liq muhim voqealarni batafsil ifodalash uchun mislsiz kuch, imkoniyat va sa‘y-harakat kerak. Binobarin, ushbu markaz yo‘laklari bo‘ylab sayr qilarkanmiz, bu maskanda ulkan ishlar qilinganiga guvoh bo‘ldik. Ushbu markaz nafaqat mintqa, balki butun jahon hamjamiyati uchun foydali deb o‘ylayman.

Bo‘ljak muhokama, muvazalar Markaziy Osiyo va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasida ma‘naviy hamkorlikning yangi sahifasini ochadi. Taklif etilgan g‘oya va tashabbuslar barqaror taraqqiyot, o‘zaro hurmat va ma‘naviy yuksalish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

O‘tkir ALIMOV,
O‘ZA muxbiri

O‘ZBEKISTON – QOZOG‘ISTON: YANGI DAVRDA BIRODARLIK, O‘ZARO HURMAT, STRATEGIK SHERIKLIK VA HAMDO‘STLIK

Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 14-16-noyabr kunlari davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ladi.

Ikki mamlakat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab o‘zaro hurmat, yaxshi qo‘shnichilik va umumiy strategik manfaatlariga asoslangan mustahkam aloqalar shakllandi. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida diplomatik munosabatlar esa 1992-yil 23-noyabrda o‘rnatildi.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar ikki tomonlama munosabatlar tarixida juda muhim voqealarga aylandi. Masalan, 2017-yil 22-23-mart kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga davlat tashrifi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarda mutlaqo yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichni boshlab berdi.

Bunga javoban, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev 2019-yil 14-15-aprel kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi bilan keldi. Keyingi yillarda davlat rahbarlari bir necha bor uchrashdilar. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti 2021-yil 5-6-dekabr kunlari Ostonaga tashrif buyurdi. Qozog‘iston Prezidenti esa 2022-yil 21-22-dekabr kunlari tashrif bilan Toshkentda bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti 2024-yil 7-9-avgust kunlari Qozog‘istonga navbatdagi davlat tashrifini amalga oshirdi.

Bundan tashqari, ikki davlat rahbarlari 2023-yil 3-marta Chimkentda, 2024-yil 5-aprelda Xivada va shu yil 29-martda Olmaotada uchrashdilar.

2025-yilning o‘tgan davri ham ikki tomon uchun samarali bo‘ldi. Qozog‘iston Prezidenti 2025-yil 3-aprel kunlari “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga tashrif buyurdi. O‘zbekiston Prezidenti esa may va iyun oylarida “Markaziy Osiyo — Italiya” va “Markaziy Osiyo — Xitoy” sammitlarida ishtirok etish uchun ikki marta Ostonaga tashrif buyurdi.

2018-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Ushbu platforma mintaqaviy siyosatni muvofiqlashtirish uchun noyob maydonga aylandi. Bu orqali O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Osiyoda barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga yagona yondashuvni namoyish etayotir.

Mintaqaviy tashabbuslarni birgalikda amalga oshirish o‘zaro ishonchni mustahkamlashga, iqtisodiy va transport aloqalarining samaradorligini oshirishga hamda gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tashqi ishlar vazirlilari o‘rtasidagi faol hamkorlik siyosiy muloqotni mustahkamlashning muhim vositasidir. O‘zbekiston va Qozog‘iston

tashqi siyosat idoralari muntazam ravishda BMT, MDH, SHHT, IHT, TDT va boshqa ko‘p tomonlama tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni o‘z ichiga olgan ikki tomonlama va mintaqaviy masalalar bo‘yicha siyosiy maslahatlashuvlar o‘tkazib turadi.

2023-2025-yillarda Toshkent va Ostona shaharlarida ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o‘rtasida muntazam maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi. Ularda tomonlar hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari, mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy loyihalarni jadallashtirish masalalarini muhokama qildi.

1997-yildan buyon O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida Ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha qo‘shma hukumatlararo



komissiya faoliyat yuritmoqda. 2019-yildan buyon unga ikki mamlakat Bosh vazirlari hamraislik qilib kelmoqda. Xalqaro hamkorlik kengashining eng so‘nggi, 22-yig‘ilishi 2025-yil 22-23-oktabr kunlari Xiva shahrida bo‘lib o‘tdi.

2021-yildan buyon Bosh vazirlar ishtirokida 17 ta tadbir, jumladan, o‘zaro tashriflar, shuningdek, O‘zbekiston tomoni YOII yig‘ilishlari va yillik “Raqamli Olmaota” forumlarida qatnashdi.

Bundan tashqari, 2018-yilda hududlararo hamkorlik mexanizmi — O‘zbekiston va Qozog‘iston hududlararo forumi ishga tushirildi. To‘rtinchi forum 2024-yil 20-21-oktabr kunlari Samarqandda o‘tkazildi, beshinchisi esa 2026-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Parlamentlararo hamkorlik siyosiy muloqotning muhim tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil mart oyida Qozog‘istonga davlat tashrifi davomida ikki mamlakat Senatlari o‘rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi. 2018-yil 26-noyabrda O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va

Qozog‘iston Parlamenti Majlisi o‘rtasida xuddi shunday hujjat imzolandi.

2020-yilda O‘zbekistonda Qozog‘iston Parlamenti bilan hamkorlik bo‘yicha komissiya tuzildi. Qayd etish joizki, Qozog‘iston parlamentining ikkala palatasida ham o‘zaro hamkorlik guruhlari faoliyat yuritmoqda.

2022-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Qozog‘istonga tashrifi davomida tomonlar Parlamentlararo hamkorlik kengashini tuzish to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar. Shundan buyon qo‘shma uchrashuvlar, delegatsiyalar almashinuvi va xalqaro parlament forumlarida ishtirok etish muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

2025-yil 7-aprelda Qozog‘iston Parlamenti Majlisi raisi Erlan Koshanov Parlamentlararo ittifoqning 150-Assambleyasida ishtirok etish uchun Toshkentga tashrif buyurdi va Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi.

Joriy yil 18-19-avgust kunlari Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva rasmiy tashrif bilan Qozog‘istonga bordi va Prezident Qosim-Jomart Toqayev tomonidan qabul qilindi. Shuningdek, Qozog‘iston parlamentining ikkala palatasi rahbarlari bilan uchrashdi hamda Ilmiy va ijodiy ziyolilarning birinchi forumida qatnashdi.

Muntazam parlamentlararo aloqalar nafaqat siyosiy ishonchni mustahkamlashga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini muvofiqlashtirishni ham ta‘minlaydi.

Qozog‘iston O‘zbekistonning uchta eng yirik tashqi savdo sheriklaridan biri hisoblanadi. 2024-yilda O‘zbekistonning Qozog‘iston mintaqaviy savdo aylanmasidagi ulushi 55,8 foizni tashkil etdi.

2022-yilda ikki mamlakat Bosh vazirlari o‘rinbosarlari raisligida Qo‘shma loyihalarni

monitoring qilish va import o‘mini bosish bo‘yicha hukumatlararo ishchi guruhii tuzildi.

Madaniy va gumanitar sohalardagi hamkorlik 1994-yil 10-yanvardagi hukumatlararo kelishuvga asoslanadi. So‘nggi yillarda madaniy aloqalarni mustahkamlash uchun o‘nlab tadbirlar, jumladan, ko‘rgazmalar, festivallar, gastrol safarlari va forumlar tashkil etildi.

2023-yilda Samarqand va Buxoroda Qozog‘iston madaniyati kunlari, 2024-yilda esa Ostona va Olmaotada O‘zbekiston madaniyati kunlari bo‘lib o‘tdi.

Turizm sohasidagi sheriklikka alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘iston Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab sayyohlik yo‘nalishlarini birgalikda targ‘ib qilmoqda. Bu esa madaniy almashinuvi osonlashtiradi, xorijiy sayyohlarni jalb qiladi va yangi ish o‘rinlarini yarataypti. Shuningdek, ziyorat turizmi faol rivojlanmoqda, ikki mamlakat fuqarolari va xorijiy mehmonlar uchun qo‘shma turpaketlari tashkil etilmoqda.

Ta‘lim va fan sohasidagi yaqin sheriklik gumanitar aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Universitetlar o‘rtasida akademik almashinuv kengayib bormoqda va ikki tomonlama diplom berish dasturlari doirasida tahsil olayotgan talabalar soni ortib bormoqda. Qozog‘istonda O‘zbekiston universitetlarining filiallari, O‘zbekistonda esa Qozog‘iston oliy ta‘lim muassasalarining filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar aloqalarni yanada mustahkamlash va uzoq muddatli loyihalarini amalga oshirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Ikki mamlakatning mintaqaviy va xalqaro formatlarda — Markaziy Osiyo rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, SHHT, MDH, IHT va boshqa tashkilotlar doirasidagi ishtiroki mintaqada taraqqiyot, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlashdagi rolini kuchaytiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston — Qozog‘iston munosabatlari o‘zaro hamkorlikning yangi darajasiga ko‘tarilmoqda. Bu Markaziy Osiyoning qardosh xalqlari ittifoqi kuchli salohiyatga ega ekanligini va butun mintqa uchun tayanch bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazaridan, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning O‘zbekistonga bo‘ljak tashrifi yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari tarixida yangi sahifa ochadi va ikki mamlakatning birgalikdagi sa‘y-harakatlari Markaziy Osiyo mintaqasini tinchlik, barqaror rivojlanish va farovonlik makoniga aylantirishga hissa qo‘shadi.

“Dunyo” AA

Xalqaro hamkorlik

TURKIY DUNYONING YAGONA TRANSPORT MAKONI



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Globallashuv jarayonida transport-logistika sohasini rivojlantirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki qulay infratuzilma yuklarni yetkazib berish jarayonida xarajatlarni kamaytirish va sifatli xizmat ko'rsatishga yordam beradi. Shu bois, mamlakatimizda ushbu tizimda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, samarali transport tizimi bugungi raqobat kuchaygan sharoitda iqtisodiy rivojlanishning muhim omilidir. Mintaqalararo savdo va integratsiya jarayoni kengayib borar ekan, transport infratuzilmasi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning asosiy tayanchiga aylanmoqda.

Yevropa va Osiyo o'rtasida joylashgan turkiy mamlakatlar bu jarayonda alohida o'rin tutib, Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida yagona transport makonini shakllantirish yo'lida faol hamkorlikni kuchaytirmoqda. Zero, Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi muhim savdo chorrahasida joylashgan mintaqa rivojlanish uchun ulkan salohiyatga ega. Tashkilotga a'zo davlatlar aholisi 175 million kishini, hududi esa 4,5 million kvadrat kilometrni tashkil etadi.

O'zbekiston tashkilotga a'zo bo'lgan kundan boshlab hamkor davlatlar amalga oshirayotgan muhim loyihalarga sherik bo'ldi va aynan transport-logistika sohasidagi tashabbuslarni to'liq qo'llab-quvvatladi.

TDT doirasida bir qancha muhim transport yo'nalishlari mavjud. Ular o'zaro bog'liqlik va iqtisodiy sheriklikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, aynan O'rtta yo'lakni tranzitni optimallashtirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega bo'lgani uchun alohida e'tiborda turibdi.

O'rtta yo'lakni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar yechimi

Jahon banki tahliliga ko'ra, 2030-yilga borib O'rtta yo'lak bo'yab tashuvlar hajmi uch barobar ortib, yiliga 11 million tonnaga yetadi. “Turkiy dunyo nigohi — 2040” strategik hujjatida O'rtta yo'lakni rivojlantirish Sharq va G'arb o'rtasida eng qisqa va xavfsiz transport yo'lini yaratish hamda turkiy davlatlarning xalqaro logistika zanjiriga bog'lanishga qaratilgan ustuvor vazifasi sifatida mustahkamlangan.

Mazkur loyiha muhim jihatlardan biri “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li qurilishidir. 2024-yil dekabrda Jalolobodda tranzit masofalarni ancha qisqartiradigan va yiliga 15 million tonna yuk tashish imkonini beradigan bu muhim infratuzilmaga tamol toshi qo'yilgandi. Ushbu tarixiy voqea mintaqada iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va uch mamlakat o'rtasidagi transport aloqasini yaxshilashga qaratilgan eng yirik infratuzilma loyihalaridan birini amalga oshirishda muhim bosqich bo'ldi.

Natijada Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuklarni yetkazib berish masofasi bir necha ming kilometr, muddati esa qariyb bir haftaga qisqardi. Kelajakda ushbu temir yo'l tarmog'i va Transafg'on yo'lagining tutashirilishi Xitoy, Markaziy va Janubiy Osiyoning transport-kommunikatsiyasini samarali bog'lash va mustahkamlash imkonini beradi.

So'nggi yillarda geosiyosiy keskinlik kuchayishi tufayli Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi butun dunyo hamjamiyatining diqqat

markazida turibdi. Yuk tashish hajmi oshishiga qaramay, muvofiqashtirilgan holda hal etilishi zarur bo'lgan muammolar mavjud.

Ulardan biri Kaspiy dengizining sayozlashishidir. Natijada kemalarga yuk ortish atigi 65 foizni tashkil etadi. Kaspiy dengizi portlaridagi navbat 30 kunga cho'ziladi. Noqulay ob-havo sharoiti tufayli kemalar yil davomida 40 kungacha qatnamaydi. Mazkur masalalar qo'shma yechim va yondashuvlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Prezidentimiz 2023-yil iyunda Qirg'izistonda bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” yetakchilarining uchrashuvida mintaqamiz va ko'hna qit'aning transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish, eng avvalo, O'rtta yo'lakni shakllantirish yo'li orqali mamlakatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimligini ta'kidlagan edi.

Global logistika zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish hamda diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining Temir yo'li idoralari kengashini ta'sis etish va bu tuzilmaning direksiyasini yurtimizda joylashtirish tashabbusi O'zbekistonning yagona integratsiyalashgan transport tizimini joriy etish maqsadini yaqqol namoyon etadi.

2024-yili temir yo'l ma'muriyatlari rahbarlarining Bokuda bo'lib o'tgan uchrashuvi yakunida ushbu yo'nalishni kengaytirish bo'yicha muvofiqashtiruvchi qo'mita tuzildi hamda tranzit konteyner poyezdlarini yo'lga qo'yish bo'yicha ma'sul logistika kompaniyalari belgilandi.

Temir yo'lida konteyner tashuvlari bilan bir qatorda vagonlarda yuk tashish uchun ham chegirmalar taqdim etish hamda yagona



O'zbekiston — Turkiya — Ozarbayjon tashqi ishlar, savdo va transport vazirlarining 2025-yil 29-yanvar kuni Anqara shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi yig'ilishi yakunida Anqara deklaratsiyasi imzolandi va uning doirasida transport sohasiga oid qator kelishuvlarga erishildi.

Yuk tashuvi hajmini oshirish va transport xarajatlarni kamaytirish bo'yicha turkiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi Logistika markazlari va yuk tashuvchilar alyansi tashkil etildi. Alyans TDT doirasida transport-logistika sohasidagi tadbirkorlar va tashuvchilarni bir joyda jamlab, o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugun O'zbekiston tartib-taomillarni soddalashtirish, yuk tashuvi jarayoni

hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratayotgani ta'kidlandi. Jumladan, Janubiy Osiyo, Xitoy, Yaqin Sharq va Yevropani bog'lovchi transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar faol ilgari surilayotgani alohida e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi chuqur islohotlar uchun “yo'l xarita”si bo'lib xizmat qilmoqda. U barqaror, raqobatbardosh va o'zaro bog'langan transport makonini yaratishga qaratilgan. Unda asosiy temir yo'l yo'nalishlari va xalqaro tashuvlar hajmini oshirish, multimodal sxemalarni joriy etish ustuvor ahamiyatga ega.

Tashkilot doirasida transport sohasidagi hamkorlik izchil va jadal rivojlanmoqda. Bu



yo' hujjatini amaliyotga tatbiq qilish orqali mazkur yo'lakni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud. Kelishuvga Xitoyni qo'shish orqali Xitoy — Yevropa yo'nalishida tashilayotgan yuklarni jalb qilgan holda mamlakatlarimiz tranzit salohiyatini oshirish mumkin.

Bugun O'zbekiston O'rtta yo'lak foydalanuvchilaridan biridir. Xususan, 2024-yilda mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi va Kavkaz mamlakatlari, Turkiya, AQSH, Braziliya kabi davlatlar bilan xalqaro yuk tashuvi hajmi 2,8 million tonnani tashkil etganini hisobga olsak, umumiy yuk hajmining 5 foizga yaqini O'rtta yo'lak orqali tashilgan.

2023-yilda Boku porti orqali tashilgan milliy yuk hajmi 867 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga ko'ra mazkur ko'rsatkich 27 foizga oshib, 1,1 million tonnaga yetdi.

O'tgan yili TDTga a'zo davlatlar bilan O'zbekistonning eksport-import yuk tashuvi hajmi 13 million tonnani tashkil etdi. Bu mamlakatimiz umumiy xalqaro yuk tashish hajmining 22 foizidir.

Davlatlarning transport jihatidan o'zaro bog'liqligini mustahkamlash orqali yuk va yo'lovchilar oqimini yanada oshirish hamda qo'shimcha tranzit tashuvlarini jalb qilish uchun qator bitimlar imzolangan.

O'tgan davrda O'zbekiston aeronavigatsiya xizmati provayderi Yevropa va Osiyo uchun mintaqaviy aeronavigatsiya muvofiqashtirish platformasiga qo'shilgani hamda 2023-yil 21-dekabrda boshlab Turkiya va Ozarbayjon aeronavigatsiya xizmati provayderlari tomonidan tuzilgan birlashmaga rasman a'zo bo'lganini ta'kidlash joiz.

va hujjatlarini raqamlashtirish hisobiga avtomobil transportida tashuv xizmatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, mamlakatimiz Markaziy Osiyoda TIR-EPD, Real-Time, SafeTIR, AskTIRweb texnologiyalarini joriy etgan hamda xalqaro yuk tashuvlarida elektron kafolat texnologiyasini sinovdan o'tkazgan ilk davlatlardan biridir.

TDTga a'zo davlatlar O'zbekistonning asosiy savdo-iqtisodiy sheriklari qatoriga kiradi. Bunda Ozarbayjon bilan erkin savdo, Turkiya va Vengriya bilan eng ko'p qulaylik rejimi amal qiladi.

Raqamlashtirilgan tizimlar, yangi transport yo'nalishlari va qo'shma investitsiyalar tufayli TDT mamlakatlari o'zaro integratsiyani chuqurlashtirib, Yevroosiy transport tarmog'ida o'rni mustahkamlab bormoqda.

Tranzit tashuvlar hajmi oshadi

Poytaxtimizda joriy yil 12-noyabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti kotibiyati hamda Logistika markazlari va yuk tashuvchilar alyansi ko'magida multimodal tashuvlar bo'yicha “Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida transport yo'laklari va logistikani rivojlantirish strategiyasi” mavzusida xalqaro forum tashkil etildi. U davlat tashkilotlari va biznes hamjamiyati o'rtasida ochiq muloqot uchun muhim maydon sifatida mustahkam hamkorlik ko'prigi vazifasini o'taydi.

O'n to'rt davlatdan 75 ta kompaniya vakillari ishtirok etgan forumda O'zbekiston so'nggi yillarda transport sohasidagi

yo'nalishda oliy darajadagi uchrashuvlar bilan bir qatorda transport vazirlarining muntazam yig'ilishlari o'tkazilib, o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlash, yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash hamda mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama etilmogda.

— Turkiy davlatlar tashkiloti yuqori iqtisodiy va siyosiy salohiyatni mujassam etgan nufuzli xalqaro tashkilot sifatida e'tirof etilmogda, — dedi transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Zero, Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi muhim savdo chorrahasida joylashgan mintaqamiz barqaror taraqqiyotga erishish uchun ulkan imkoniyatga ega. Bugungi geosiyosiy keskinlik sharoitida TDTga a'zo mamlakatlarning Yevroosiy markazidagi strategik joylashuvi hisobiga xalqaro hamjamiyatning mintaqamizga e'tibori tobora oshmoqda. Mazkur tadbirning o'tkazilishi davlatlar rahbarlari tomonidan transport-logistika sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha belgilangan umumiy strategik maftaatlarni birlashtiruvchi vazifalarni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Prezidentimiz joriy yil 7-oktabr kuni Gabala shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida ta'kidlaganidek, transport sohasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash va xalqaro tranzit yo'laklarini birgalikda rivojlantirish turkiy davlatlar hamkorligining eng muhim yo'nalishlaridan.

Davlatimiz rahbari mintaqadagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi strategik yo'nalishlar sifatida hozir qurilayotgan “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li va istiqbolli Transafg'on yo'lagini belgilab, ularni O'rtta (Transkaspiy) yo'lakka bog'lash

orqali mintaqamizda ko'p tarmoqli, strategik magistralar tizimini yaratish zarurligini ta'kidlagan edi.

“Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” temir yo'li Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi eng qisqa mintaqaviy yo'lak bo'lsa, istiqboldagi Transafg'on yo'lagi Markaziy Osiyo mamlakatlarining Pokiston portlari orqali Hind okeaniga to'g'ridan to'g'ri chiqishiga imkon beradi va mintaqaning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Kelgusida ushbu ikki yo'nalish Transkaspiy xalqaro transport yo'lagining tarkibiy qismiga aylanib, Xitoydan Yevropagacha uzluksiz multimodal yo'lakni shakllantiradi.

Transkaspiy yo'lagining muhim qismi bo'lgan turkiy davlatlarni bog'lovchi Zangezur yo'lagi bo'yicha kelishuvlarga erishilgani mintaq uchun strategik ahamiyatga ega. Mazkur loyiha Turkiya, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Kavkaz o'rtasidagi transport aloqalarini yaxshilash, o'zaro bog'liqlikni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xalqaro aralash yuk tashuvlari to'g'risidagi kelishuv, Turkiy davlatlar transport bog'liqligi dasturi, Elektron ruxsatnomalar tizimidan foydalanish to'g'risidagi hamkorlik memorandum kabi hujjatlar qabul qilangani o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tashkilotning qardosh portlar va Logistika markazlari va yuk tashuvchilar alyansi platformasi doirasida biznes vakillarining uchrashuvlari muntazam o'tkazilib, hamkorlik masalalari muhokama qilinmoqda.

Bugun O'zbekistonning Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi bo'yab mintaqalararo yuk tashuvlari hajmi barqaror o'smoqda. 2024-yil davomida mazkur yo'nalishda yuk tashuvlari hajmi 1,1 million tonnani tashkil etib, 26 foiz ko'paygan bo'lsa, joriy yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich yana 6 foiz o'sib, 945 ming tonnani tashkil etdi.

Joriy yilning 9 oyi yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro yuk tashuvlarining umumiy hajmi 22,2 million tonnaga yetdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 foiz ko'p.

Xalqaro multimodal va tranzit tashuvlar hajmini yanada oshirish maqsadida o'zbek biznesi vakillari tomonidan Kaspiy dengizida foydalanish uchun kemalarni sotib olish imkoniyati o'rganilmoqda. Ushbu sohada hamkor mamlakatlar bilan dengiz orqali tashuv, kemasozlik va malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tegishli hamkorlik bitimlari imzolangan.

Shuningdek, hozir hamkor davlatlar bilan e-CMR elektron yuk hujjatlari asosida pilot tashuvlarni amalga oshirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishda TDT tajribasi

XXI asrda transport faqat jismoniy infratuzilma bo'lmay qoldi. Relslar, asfalt va terminallar ortida raqamli platformalar, algoritmlar va axborot aloqalari turibdi.

Yuk oqimining o'z vaqtida yetib borishi, savdoning barqarorligi, pirovardida butun mintaqaning raqobatbardoshligi ushbu



aloqalarning izchilligi va shaffofligiga bog'liq.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar uchun transportning raqamli transformatsiyasi nafaqat texnologik trend, balki integratsiyaning strategik yo'nalishiga aylandi. Bugun bu jarayon amaliy darajaga ko'tarilmogda.

Global miqyosda logistika sohasini raqamlashtirish ulkan foyda keltiradi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, u bo'xona rasmiylashtiruvchi vaqtini 50 foiz qisqartirishi va

yetkazib berish zanjiri samaradorligini 15-20 foiz oshirishi mumkin.

McKinsey Global Institute tashkilotining 2024-yilgi hisobotida transportda raqamli texnologiyalardan olinadigan qo'shimcha qiymat millionlab ish o'rinlari yaratishga xizmat qilishi barobarida yiliga 2,5 trillion dollar daromad keltirishi qayd etilgan.

“e-Permit”, “e-TIR”, “Yagona darcha” tizimlari va “Digital Trade Corridor” kabi vositalar allaqachon xarajatlarni 20-30 foiz kamaytirmogda va Yevroosiy makonidagi mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, tranzitni tezlashtirmogda.

TDTda raqamlashtirish jarayoni O'zbekiston 2019-yilda tashkilotga qo'shilishi bilan boshlangan va mintaqaviy hamkorlikda yangi sahifa ochgan. Aslida, transport sohasiga raqamli vositalarni keng miqyosda joriy etish maqsadida O'zbekistonda xalqaro yuk tashish tizimini raqamlashtirish bo'yicha ishlar tizimli, bosqichma-bosqich bajarilmoqda. Dastlab TDT transport vazirlarining 2022-yil 28-oktabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Turkiya Transport va infratuzilma vazirligi o'rtasida ruxsatnoma blankalarini elektron almashish (e-Permit) tizimi ishga tushirildi.

2022-yil dekabrda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida xalqaro yuk tashuvlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq, e-TIR tizimidan foydalangan holda dunyodagi birinchi tashuv amalga oshirildi. 2024-yilda Qozog'iston va joriy yildan boshlab Ozarbayjon bilan “e-Permit” texnologiyasini to'liq joriy etishga erishildi.

Mamlakat ichkarisida raqamli ekotizim ham jadal rivojlanmoqda. Transport sohasida ayni paytga qadar 30 dan ortiq axborot tizimi va platformalarni ishlab chiqilgan. Xususan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va joriy yildan boshlab Ozarbayjon bilan “e-Permit” texnologiyasini to'liq joriy etishga ko'rsatilmoqda.

Bundan tashqari, respublikamiz orqali tranzit o'tayotgan xavfli toifadagi yuklarni tashishga ruxsatnoma blankalarini elektron rasmiylashtirish va berish bo'yicha “Xavfli yuk” axborot tizimi ish boshladi.

Yurtimizga parvozlarini amalga oshirishda xorijiy aviakompaniyalarning parovozlar jadvalini elektron tarzda kelishishni nazarda tutuvchi “R shakli” axborot tizimi ishlab chiqildi.

Jamoat transportlarida yo'lovchi tashish sifatini oshirish, avtobuslar harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish, tashuvchilar faoliyatida bosib o'tilgan masofa va sifat mezonlari ustuvorligini ta'minlash, jamoat xavfsizligini oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan dispatcherlik tizimi joriy etildi.

Markaziy shaharlarda jamoat transportida yo'l haqini to'lashning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi. Barcha transport turlariga chiptalarni masofadan turib xarid qilish uchun platformalar mavjud.

Umuman olganda, TDT mamlakatlarida transportni raqamlashtirish allaqachon eksperimental bosqichdan to'liq ekotizimni shakllantirish jarayoniga o'tdi. Elektron yuk xatlaridan torib, “aqlii portlar”gacha — barchasi nafaqat texnologik innovatsiyalar,

balki mintaqaning yangi iqtisodiy bog'liqligi poydevoridir. Bir paytlar turkiy davlatlarni karvon yo'llari bog'lagan bo'lsa, endi ularni kelajakning raqamli yo'nalishlari birlashtirmogda.

Qisqasi, mazkur forum multimodal tashuvlar, raqamlashtirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish va mavjud muammolarni hal etishda muhim platforma bo'li xizmat qiladi.



YUTA SHTATI TAJRIBASI: DIN va JAMIYAT UYG‘UNLIGI SABOQLARI

Muzaffar KOMILOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori,
xalqaro ICESCO tashkiloti ijroiyo kengashi a‘zosi

Bugungi kunda O‘zbekiston ochiqlik va xalqaro hamkorlik siyosatini izchil davom ettirar ekan, dunyo miqyosidagi yetakchi davlatlar va mintaqalar bilan amaliy muloqotni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan strategik sheriklik aloqalari yangi mazmun kasb etib, iqtisodiy, investitsiyaviy va ma‘naviy sohalarida yangi yo‘nalishlar ochilmoqda.

Shu yo‘nalishdagi muhim qadamlardan biri sifatida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning AQSHning Yuta shtatidagi Iso Masih Oxirgi zamon avliyolari cherkovi rahbari, oqsoqol David Bednar va “Stirling” xalqaro xayriya fondi raisi Mayls Xansendan iborat ishbilanmonlar delegatsiyasini qabul qilishi ham katta ahamiyat kasb etdi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani ta‘kidlandi. Shu jarayonda Yuta shtati bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, raqamlashtirish, ta‘lim va ijtimoiy himoya sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, innovatsiyalar, tog‘-ikon sanoati, xotin-qizlar tadbirkorligi, inklyuziv ta‘lim, sog‘liqliq saqlash, suv ta‘minoti va sanitariya kabi yo‘nalishlarda hamkorlik uchun katta salohiyat mavjudligi qayd etildi. Uchrashuv yakunida hududlararo aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida Yuta shtati gubernatori boshchiligidagi delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifini tashkil etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Mazkur jarayonlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarini, balki jamiyat barqarorligi va ma‘naviy muhit uyg‘unligini ta‘minlash borasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkonini ham yaratmoqda. Chunki Yuta shtati bugungi kunda iqtisodiy o‘rinish sur‘atlari, ijtimoiy barqarorlik va ma‘naviy muhit uyg‘unligi bilan ajralib turadigan hudud sifatida tan olingan.

Bu shtat turli xalqaro reytinglar va tahlil markazlari ma‘lumotlarida AQSHdagi eng barqaror, ijtimoiy jihatdan taraqqiy etgan hududlardan biri ekanini aytiladi.

Jumladan, Utah Foundation ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda Yuta “Ijtimoiy kapital indeksi” bo‘yicha AQSHning TOP-10 shtati qatoriga kirgan. Ushbu ko‘rsatkich aholi o‘rtasidagi ishonch, iqtisodiy barqarorlik, oilaviy munosabatlarda mustahkamligi, hamjihatlik va jamoat hayotidagi faollik darajasini aks ettiradi.

Shtatning iqtisodiy rivojlanishi ham barqaror yo‘nalishda kechmoqda. U.S. Census Bureau va Gardner Policy Institute ma‘lumotlariga ko‘ra, Yuta iqtisodiyoti so‘nggi yillarda mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori sur‘atlarda o‘sgan.

2024-yilda yalpi ichki mahsulotning real o‘rinishi AQSH miqyosidagi ko‘rsatkichlardan yuqoribo‘ldi. Shubilanbirga, 2010-2020-yillarda aholi soni 18 foiz ko‘payib, Yuta Amerikadagi eng tez o‘svuchi shtatlardan biriga aylandi. Bu Yutadagi aholi turmush tarzi ijobiy ekanini, oilalar sharoiti uzulksiz ravishda yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi.

Aholisining ta‘lim darajasi yuqori: 25-64 yoshdagi fuqarolarning 80 foizdan ortig‘i oliy yoki o‘rta maxsus ma‘lumotga ega. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, shtat iqtisodiyotida yuqori malakali kadrlar ulushi katta. Bu holat shtatni ilm va olimlar eksport qiluvchi hududga aylantirgan.

Demografik jihatdan Yuta AQSH miqyosida alohida o‘ringa ega. 2024-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, aholining o‘rtacha yoshi 32,4 bo‘lib, bu

mamlakatdagi eng yosh demografik ko‘rsatkich hisoblanadi (milliy o‘rtacha yosh — 39,1). Yosh avlodning katta ulushi iqtisodiy faollik, innovatsion salohiyat va mehnat bozorining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Utah Foundation tadqiqotlariga ko‘ra, shtat aholisi orasida ijtimoiy ishonch, oilalarning turmush darajasi va jamoat faolligi yuqori darajada. Bu omillar Yutani nafaqat iqtisodiy, balki ma‘naviy jihatdan ham AQSHdagi eng namunaviy shtatlardan biriga aylantirgan.

Bu yerda jamiyat hayotidagi barqarorlik va birdamlikni ta‘minlovchi asosiy kuchlardan biri dindir. Din faqat ibodat, urf-odatlar emas. Aksincha, u insonning hayot tarzi, jamiyatdagi munosabatlarda va ma‘naviy muhitning muhim qismidir. Diniy qadriyatlar mahalliy urf-odat va qadriyatlarga uyg‘un holatda odamlarni birlashtiradi, o‘zaro yordam va mas‘uliyat tuyg‘usini mustahkamlaydi.

Shu jihatdan Yuta tajribasi jahon miqyosida ham qiziqish uyg‘otadi: iqtisodiy yutuqlar ma‘naviy-axloqiy ustuvorlik bilan uyg‘un holda namoyon bo‘layotgan jamiyatda barqarorlik va farovonlik tabiiy holga aylanadi.

Shtat ko‘p jihatdan boshqa hududlardan farq qiladi. Bu yerda jamiyat hayotida dinning tungan o‘rni, ijtimoiy munosabatlarga ta‘sir va aholining birdamlik ruhini mustahkamlashdagi ahamiyati alohida e‘tirofqa loyiq. Shtatdagi diniy tashkilotlar aholining ibodat joyi bo‘lishi barobarida muhim ma‘naviy va ijtimoiy markaz vazifasini ham bajaradi. Ular jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida faol ishtirok etadi.



“ Yuta jamiyatida din odamni faqat ibodatga emas, balki jamoaga xizmat qilishga chorlaydi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishdagi g‘oyalar tobora mustahkamlanmoqda. Prezidentimiz bu haqda: “Biz xalqimizning asriy dini bo‘lgan islomning haqiqiy mohiyatini — uning bag‘rikenglik, tinchlik, mehr-oqibat va ilmga da‘vat etuvchi asosiy tamoyillarini yanada chuqur anglab, hayotimizga tatbiq etishimiz kerak”, degan edi.

Shu tariqa diniy tashkilotlar faoliyatida jamiyat ehtiyojlari markaziy o‘rinni egallaydi va odamlarning hayotidagi muammolarni yengillatish, ularni mustaqil hamda mas‘ul shaxs sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi.

Yuta jamiyatida oila alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun shtatda ota-onalar uchun tarbiyaviy kurslar, nikoh va oilaviy munosabatlarda bo‘yicha maslahat dasturlari, bolalar va o‘smirlar uchun ta‘lim va axloqiy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Maxsus dasturlar orqali yoshlarning mehnatga, jamoat ishlariga, ilm va madaniyatga

Ijtimoiy dasturlar fuqarolarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikka qarshi keskin kurashish, ta‘limni rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Bunda asosiy g‘oya “mehnat orqali insonni mustaqil hayotga qaytarish”dir.

Ayni shu tajriba davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarda muvozanat va o‘zaro hurmat maslahat dasturlari, bolalar va o‘smirlar uchun ta‘lim va axloqiy tarbiya bo‘yicha mashg‘ulotlar aniq chegaralar mavjud bo‘lsa-da, ular bir-birining vazifasiga aralashmay, bir maqsad — inson farovonligi va jamiyat barqarorligi



qiziqishi kuchaytiriladi. Natijada ular nafaqat boshqalarga yordam berish, balki mas‘uliyat va hamjihatlik tuyg‘usini ham o‘rganadi.

yo‘lida hamkorlik qiladi. Bu hamkorlik asosida bir muhim haqiqat yotadi: din va davlat raqib emas, balki inson uchun xizmat qiladigan ikki qanotdir.

Yuta tajribasi va O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yo‘li bir-biridan juda uzoq masofada joylashgan ikki jamiyatda bir umumiy haqiqatni tasdiqlaydi, din faqat ibodat emas, balki ma‘rifat, insonparvarlik va jamiyat barqarorligining asosidir.

Ikkalasi ham turli tarixiy va madaniy muhitda shakllangan bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turadigan yagona jihat dinning ijtimoiy hayotdagi ijobiy roliga bo‘lgan chuqur ishonchdir.

Keyingi sakkiz yilda O‘zbekistonda din va jamiyat uyg‘unligiga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan diniy davlatdan ajratish tamoyili saqlangan holda, uning ma‘naviy va ma‘rifiy hayotdagi o‘rni qayta baholandi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 19-iyun kuni diniy soha vakillari bilan uchrashuvda aytdan “Din ma‘rifat va ezigulik manbai bo‘lishi kerak”, degan fikri mazkur siyosatning ta‘kidlaganidek, “dinni siyosatdan uzoq, lekin jamiyatning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasiga yaqin holda” qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu asosda diniy sohaga oid davlat siyosatida yangi bosqich boshlandi — u diniy ta‘lim, ilm-fan va madaniyat uyg‘unligini ta‘minlashga qaratildi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin

Naqshband ilmiy markazlari kabi muassasalar nafaqat diniy bilimlarni targ‘ib qilmoqda, balki ular orqali millatning ma‘naviy o‘zligini mustahkamlash vazifasi ham bajarilmoqda. Bu markazlarda diniy bilimlar zamonaviy ilmiy usullar bilan uyg‘unlashtirilib, insonni dunyoviy va ma‘naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash maqsad qilingan.

Prezidentimiz bunday degan edi: “Bugun biz dinimizning asl insonparvarlik mohiyatini, uning ma‘rifat va mehr-shafqatga asoslanganini yoshlarimiz ongiga singdirishimiz kerak. Bu — kelajagimiz uchun

Yangi O‘zbekiston” hamda “Jaholatga qarshi ma‘rifat” ezuu va ulug‘vor g‘oyalari bilan uzviy bog‘langan. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston bu — avvalo, ezigulik, bag‘rikenglik va mehr-shafqat ustuvor bo‘lgan jamiyatdir”. Bu g‘oya Yuta tajribasidagi asosiy tamoyil — din va jamiyat uyg‘unligi orqali ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash bilan hamohangdir.

Dunyo turli madaniyat va dinlarga mansub bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turadigan umumiy qadriyatlar bor. Yuta va O‘zbekiston tajribalari ko‘rsatadiki, din to‘g‘ri yo‘naltirilganda ma‘rifat, insonparvarlik va jamiyat barqarorligining asosiy manbai bo‘ladi.

Ikki jamiyatning o‘xshash jihati shundaki, ular din siyosat qurilgiga aylanmagan, balki ma‘naviyat manbai sifatida qadrlangan.

Bu fikr bugungi global dunyoda ham dolzarb, din bo‘lvuchi emas, birlashtiruvchi kuch, u insonni ezigulik, jamiyatni esa barqarorlikka yetaklaydi. Yuta va O‘zbekiston tajribasi shu haqiqatning ikki tomonlama isbotidir.

Mazkur modelda din shaxsiy ishonchni kuchaytirish bilan birga insonni jamoat ishlarini, bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zish va mas‘uliyat bilan yashashga chorlaydi. Bu — har qanday jamiyat uchun muhim tamoyil.

Birinchidan, din ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytiradi. Yuta tajribasida diniy tashkilotlar faoliyati jamoatchilik ongini tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim odamlarda bir-biriga nisbatan mehr, hurmat va mas‘uliyat hissini mustahkamlaydi. Shu tariqa din insonni faqat ibodatga emas, balki insonparvarlikka, ya‘ni boshqalarning hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga undaydi.

Ikkinchidan, din — davlat o‘rtasidagi ishonch — jamiyat barqarorligining garovi. Yutada davlat va diniy tashkilotlar o‘zaro hurmat va ishonch asosida faoliyat yuritadi.

Davlat din ishlariga aralashmaydi, lekin uning ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglaydi. Din esa siyosatga aralashmagan holda jamiyatda ijobiy ma‘naviy muhitni shakllantiradi, insonlarni adolat va insof yo‘lida yashashga chorlaydi.

Uchinchidan, din — faqat ibodat emas, balki mehr, ma‘rifat va xizmat. Yutada diniy hayot markazida insonga g‘amxo‘rlik va jamoaga foyda keltirish tamoyili turadi. Din orqali insonlar o‘rtasida kuzatiladigan ma‘naviy, shuningdek, ijtimoiy masalalar hal etiladi. Bu esa diniy faoliyatni jamiyat rivojiga yo‘naltirishning samarali yo‘li sifatida namoyon qiladi.

Yuta tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, dini jamiyat hayotida ma‘rifat va ijtimoiy kuch sifatida faol ishlatishtir oqali insonlarni birlashtirish, mas‘uliyat hamda mehr tuyg‘usini mustahkamlash mumkin. Binobarin, din shaxsiy e‘tiqod, jamiyatga xizmat, ma‘naviy poklanish va axloqiy yetuklik manbai bo‘lishi zarur. Tarixan shunday bo‘lib kelgan.

Shu ma‘noda, O‘zbekiston o‘z milliy modelida dini inson va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi ma‘naviy kuch sifatida rivojlantirilmogda. Bu sharaflil yo‘lda O‘zbekistonning ko‘p asrlik boy merosi, buyuk ajdodlar hikmatlari tomonidan benazir asarlari, shuningdek, og‘ir sinovlardan o‘tgan xorijiy tajriba, shubhasiz, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Yuta va O‘zbekiston yo‘llarini taqqoslaganda, ularning umumiy nuqtasi dini jamiyatni birlashtiruvchi, ma‘naviy sog‘lom muhit yaratuvchi kuch sifatida anglash ekanini ko‘rish mumkin.

Yutada diniy tashkilotlar ta‘lim tizimi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Masalan, universitetlarda dinshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy falsafa sohalarida rivojlangan, ko‘ngillilik madaniyati ta‘limning ajralmas qismiga aylangan.

Yurtimizda esa diniy-ma‘rifiy ta‘lim tizimi yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimidagi oliy va o‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasalarida yoshlar nafaqat din ilmini, balki zamonaviy fanlarni ham chuqur o‘zlashtirmogda. Bu jarayon ilm va din uyg‘unligini ta‘minlab, jamiyatda fikr va e‘tiqod erkinligini mustahkamlaydi.

Ikkala tajribada ham dinning diqqat markazida hazrati inson turadi. Din insonni ezigulikka undaydi, jamiyatni hamjihatlikka yetaklaydi, davlatga esa ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlashda yordam beradi.

O‘zbekistonda bu yo‘nalish “Yangi O‘zbekiston” hamda “Jaholatga qarshi ma‘rifat” ezuu va ulug‘vor g‘oyalari bilan uzviy bog‘langan.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston bu — avvalo, ezigulik, bag‘rikenglik va mehr-shafqat ustuvor bo‘lgan jamiyatdir”. Bu g‘oya Yuta tajribasidagi asosiy tamoyil — din va jamiyat uyg‘unligi orqali ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlash bilan hamohangdir.

Dunyo turli madaniyat va dinlarga mansub bo‘lsa-da, ularni birlashtirib turadigan umumiy qadriyatlar bor. Yuta va O‘zbekiston tajribalari ko‘rsatadiki, din to‘g‘ri yo‘naltirilganda ma‘rifat, insonparvarlik va jamiyat barqarorligining asosiy manbai bo‘ladi.

Ikki jamiyatning o‘xshash jihati shundaki, ular din siyosat qurilgiga aylanmagan, balki ma‘naviyat manbai sifatida qadrlangan.

Bu fikr bugungi global dunyoda ham dolzarb, din bo‘lvuchi emas, birlashtiruvchi kuch, u insonni ezigulik, jamiyatni esa barqarorlikka yetaklaydi. Yuta va O‘zbekiston tajribasi shu haqiqatning ikki tomonlama isbotidir.

Mazkur modelda din shaxsiy ishonchni kuchaytirish bilan birga insonni jamoat ishlarini, bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zish va mas‘uliyat bilan yashashga chorlaydi. Bu — har qanday jamiyat uchun muhim tamoyil.

Birinchidan, din ijtimoiy mas‘uliyatni kuchaytiradi. Yuta tajribasida diniy tashkilotlar faoliyati jamoatchilik ongini tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim odamlarda bir-biriga nisbatan mehr, hurmat va mas‘uliyat hissini mustahkamlaydi. Shu tariqa din insonni faqat ibodatga emas, balki insonparvarlikka, ya‘ni boshqalarning hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga undaydi.

Ikkinchidan, din — davlat o‘rtasidagi ishonch — jamiyat barqarorligining garovi. Yutada davlat va diniy tashkilotlar o‘zaro hurmat va ishonch asosida faoliyat yuritadi.

Davlat din ishlariga aralashmaydi, lekin uning ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglaydi. Din esa siyosatga aralashmagan holda jamiyatda ijobiy ma‘naviy muhitni shakllantiradi, insonlarni adolat va insof yo‘lida yashashga chorlaydi.

Uchinchidan, din — faqat ibodat emas, balki mehr, ma‘rifat va xizmat. Yutada diniy hayot markazida insonga g‘amxo‘rlik va jamoaga foyda keltirish tamoyili turadi. Din orqali insonlar o‘rtasida kuzatiladigan ma‘naviy, shuningdek, ijtimoiy masalalar hal etiladi. Bu esa diniy faoliyatni jamiyat rivojiga yo‘naltirishning samarali yo‘li sifatida namoyon qiladi.

Yuta tajribasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, dini jamiyat hayotida ma‘rifat va ijtimoiy kuch sifatida faol ishlatishtir oqali insonlarni birlashtirish, mas‘uliyat hamda mehr tuyg‘usini mustahkamlash mumkin. Binobarin, din shaxsiy e‘tiqod, jamiyatga xizmat, ma‘naviy poklanish va axloqiy yetuklik manbai bo‘lishi zarur. Tarixan shunday bo‘lib kelgan.

Shu ma‘noda, O‘zbekiston o‘z milliy modelida dini inson va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi ma‘naviy kuch sifatida rivojlantirilmogda. Bu sharaflil yo‘lda O‘zbekistonning ko‘p asrlik boy merosi, buyuk ajdodlar hikmatlari tomonidan benazir asarlari, shuningdek, og‘ir sinovlardan o‘tgan xorijiy tajriba, shubhasiz, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

al-Ananiy UNESCOning yangi bosh direktori etib saylandi.

Davlatimiz rahbari 12-noyabr kuni Holid al-Ananiy qabul qilib, yuksak lavozimga saylangani bilan tabriklati va kelgusi faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi.

O‘z navbatida, yangi saylangan bosh direktor Prezidentimizga tashkilotning bosh tadbiri qo‘llab-quvvatlangani va yuksak saviyada tashkil etilgani uchun alohida minnatdorlik bildirdi. UNESCO Bosh konferensiyasining ochilish marosimida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan strategik tashabbuslarni birgalikda amalga oshirishga tayyor ekanini ta‘kidladi.

— Biz tashkilotimizning so‘nggi qirg‘yildagi tarixida ilk bor Parijdagi bosh qarorgohimizdan tashqarida, dunyoga mashhur Samarqand shahrida Bosh konferensiyaning 43-sessiyasini muvaffaqiyatli o‘tkazdik, — dedi UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi raisi Xondker Muhammad Talxa. — Bu O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tarixiy tashabbusi asosida amalga oshirilgani va barcha a‘zo davlatlar vakillari tomonidan qo‘llab-quvvatlanganini alohida ta‘kidlashni istayman. Bu bilan O‘zbekiston UNESCO missiyasini qo‘llab-quvvatlashi, xalqaro diplomatiya va muloqotga ochiqqligini yana bir bor namoyon etdi.

UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ishtirokchilari forum yuqori samiyada o‘tkazilgani va faol muloqotga imkoniyat yaratilgani uchun O‘zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildiradi.

O‘z muxbirimiz

► Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev UNESCO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqida ta‘kidlaganidek, bunday nufuzli forumning mamlakatimizda o‘tkazilayotganini Tashkilotga a‘zo davlatlarning yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli, jadal islohotlarga bo‘lgan yuksak ishonchining yorqin ifodasi bo‘ldi

“ Sessiya ishi yorqin va qizg‘in tadbirlar, samarali kelishuvlarga boy bo‘lgani bilan yodda qolmoqda. Jumladan, ikki hafta mobaynida Bosh konferensiya sessiya majlislari bilan birga 150 dan ortiq tadbir, seminar va konferensiyalar, xalqaro ko‘rgazmalar, konsert dasturlari namoyish etildi. Tashkilotga a‘zo davlatlar tomonidan taqdimotlar o‘tkazildi.



Bosh konferensiya 43-sessiyasida 2017-yildan buyon UNESCOga rahbarlik qilgan Odri Azule xonimning vakolat muddati

yakunlandi. Azule xonim O‘zbekiston va UNESCO o‘rtasida fan, ta‘lim va madaniyat sohalaridagi aloqalarni rivojlantirishdagi katta

xizmatlari hamda xalqimizning boy madaniy merosini keng omallashtirishga qo‘shgan shaxsiy hisssasi uchun davlatimizning

yuksak mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Misrlik olim va siyosat arbobi Holid



ZAMONAVIY STADION — IRODA, MEHNAT VA ZAFAR TIMSOLI

So'nggi yillarda o'zbek futbol nafaqat ichki maydonlarda, balki xalqaro arenada ham o'z o'imini mustahkamladi. Terma jamoamizning kuchi va mahorati endi xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Buning asosi esa, albatta, so'nggi yillarda futbol infratuzilmasini zamon talablariga mos rivojlantirish borasida amalga oshirilgan tub islohotlar va bunyodkorlik ruhidir.

Yangi Toshkentda barpo etilayotgan zamonaviy stadion yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar maydoniga aylansa ajabmas. Boisi, bu kabi loyihalar yoshlarga sport bilan shug'ullanish, intizom va jamoaviy ruhni o'rganish imkonini beradi, jamiyatda esa hamfikirlik va hamjihatlik ruhini mustahkamlaydi.

2017-yilda mamlakatimizda FIFA va OFK talablariga javob beradigan maydonlar soni atigi 3 ta bo'lgan. Bugungi kunda esa 10 dan oshib, hududlarda 75 ta katta va 302 ta mini stadion faoliyat yuritmoqda. Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilgan Milliy futbol markazi va 65 mingdan ortiq yoshni qamrab olgan akademiyalar bu o'zgarishlarning yaqqol misolidir.

Ushbu maktablarga xalqaro darajadagi mutaxassislar jalb qilindi, 70 foiz mahallalarda esa mini maydonchalar tashkil etildi. Bu tizimli ishlar orqali yoshlar mahalladan boshlab

to'g'ridan to'g'ri futbol akademiyalariga kirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Bunyodkorlik nafaqat infratuzilmada, balki millatning xalqaro maydondagi obro'sida ham aks etadi. So'nggi yillarda o'zbek futbol erishgan yutuqlar — Parij Olimpiadasida ilk ishtirok, kelasi yil bo'ladigan jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritish va dunyoning turli klublarida o'ynayotgan futbolchilarimiz umumiy transfer qiymati 60 million dollardan oshishi bunyodkorlikning amaliy natijalaridir.

Yangi Toshkent stadioni esa nafaqat 2027-yilda 20 yoshgacha bo'lganlar o'rtasidagi jahon chempionati uchun xizmat qiladi, balki butun o'zbek futbol va yoshlar sporti rivoji uchun zamin yaratadi. Stadion "yashil energiya", "aqli boshqaruv" va qulay muhit prinsiplari asosida, milliy qadriyatlar va zamonaviy me'morlik uyg'unligida barpo etilmoqda.

Har bir zamonaviy stadion, futbol akademiyasi va mini maydon nafaqat sport obyekt, balki millatning birligi, hamjihatligi va ilhom ruhini mustahkamlaydigan, kelajak avlod uchun imkoniyat va umid manbai bo'lgan bunyodkorlik poyasi hisoblanadi.



UMIDLARIMIZ RO'YOBGA CHIQA BOSHLAGANI BARCHAMIZNI QUVONTIRYAPTI

Mirzahakim TO'XTAMIRZAYEV, "Do'stlik" ordeni sohibi, sport sharhlovchisi:



— Yangi stadion futbolchilar, ularning ustozlari va futbol mutasaddilari uchun nafaqat ishonch, balki katta rag'bat manbai bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy infratuzilma orqali yosh futbolchilar o'z iqtidorini rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda mamlakat sharafini munosib himoya qilish imkoniga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonimizning turli yoshdagi terma jamoalari Osiyo chempionatlari finallarida ishtirok etishiga, zafar qushishiga odatlanib qoldi. Olimpiadada ishtirok etib, kattalar o'rtasida 2026-yilgi jahon chempionati final bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritganimiz ham bu sohaga qaratilayotgan e'tibor mevasidir.

Futbol muxlislari va sportchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar beqiyos. Yangi

Toshkentda barpo etilayotgan stadionning poydevori ham aynan davlatimiz rahbari tashabbusi va g'amxo'rligi bilan qo'yildi. Bu ishlarning har biri futbolimizni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqinda FIFA prezidenti Janni Infantino yurtimizga tashrif buyurdi. U Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilgan

Milliy futbol markazini ko'rganidan so'ng hayratini yashirmay: "O'zbeklar so'zi va ishi birligini amalda isbotladi. Men xalqingizga qoyil qoldim", dedi. Bu e'tirof O'zbekiston futbolining jahon miqyosidagi obro'sidan dalolat.

Haqiqatan, Olimpiya shaharchasi, Milliy futbol markazi va yangi stadion — bularning barchasi nafaqat infratuzilma, balki yosh futbolchilar va muxlislar uchun ilhom maskani, vatan sharafiga xizmat qiladigan makon. Futbol orzulari haqiqatga aylanyapti va bu jarayonda davlat e'tibori, fan va sport mutaxassislari, murabbiylar hamda yoshlar hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Zero, zamonaviy infratuzilma orqali kelajak chempionlari tayyorlanadi, yoshlar o'z salohiyatini rivojlantiradi va yurtimiz sharafini xalqaro arenalarda munosib himoya qiladi. Muxtasar aytganda, bu stadion yoshlar orzusi, milliy g'urur va kelgusi g'alabalarimizning tayanch maskani bo'ladi.

ULKAN G'ALABALARNING TAYANCH NUQTASI

Mirjalol QOSIMOV, OKMK futbol klubi bosh murabbiyi:



— Yangi Toshkentda zamonaviy stadion qurilishiga tamol toshi qo'yilishi nafaqat sport sohasi, balki butun mamlakatimiz yoshlari hayotida muhim tarixiy voqeadir. Bu jarayonni ikki og'iz so'z bilan ifoda etish, shubhasiz, oson emas. Chunki bu ish ortida butun bir xalqning orzusi, yangi avlodning umidi, milliy g'urur va sportga bo'lgan yuksak e'tibor mujassam.

Biz ulg'aygan yillarda bunday imkoniyatlar, bunday sharoitlar haqida orzu qilishning o'zi katta gap edi. Hozir har bir mahallada yoshlar uchun sport maydonchalari, zamonaviy inshootlar, turli musobaqa va to'garaklar tashkil etilmoqda. Bu esa jismoniy sog'lom, ma'nan baquvvat avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Har bir bola maydonda to'p surganida, u o'z orzusini ko'radi — kimdir xalqaro maydondagi

biror klub safida, kimdir milliy terma jamoa libosida o'ynashni tasavvur qiladi. Davlat tomonidan sport infratuzilmasiga bunday katta e'tibor qaratilayotgani esa shu orzularni ro'yobga chiqarayotgan yo'ldir.

Yaqinda O'zbekiston futbolchilari — U-17 jahon chempionati guruh bosqichidan Panamani 6:1 hisobida

mag'lub etib chiqqani ham yurtimizdagi bunday ijobiy o'zgarishlarning yorqin ifodasidir. Bu g'alaba bir o'yin natijasi emas, balki yillar davomidagi tinimsiz mehnat, barkamol avlodni tarbiyalash siyosatining amaldagi samarasi. Yoshlarimiz maydonda iroda, jasorat va yurt nomiga munosib o'yin ko'rsadi.

Bugun nafaqat yurtimizda, balki xalqaro maydonda ham o'zbek futboliga qiziqish ortib bormoqda. Buning zamirida tinimsiz mehnat, zamonaviy sharoitlar, ilg'or tajriba va eng muhimi, yoshlarimizga ishonch yotadi.

Yaqin yillarda xalqaro klublarda to'p surayotgan yosh iste'dodlarimiz soni ko'payishi tabiiy. Ular orqali butun dunyo yurtimizning g'ururli, irodali, maqsadi aniq va vatan sevgisi bilan yo'g'rilgan avlodini ko'rsa, ajabmas.

Yangi stadion faqatgina sport inshooti emas — u kelajakda yurtimiz sharafini himoya qiladigan futbolchilarning beshigi bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi qadam kelajak g'alabalarining boshlang'ich nuqtasi, yangi O'zbekiston futbol tarixi uchun yangi sahifadir.

YOSHLAR IQTIDORINI NAMOYON ETUVCHI MASKAN

Ro'ziqul BERDIYEV, "Nasaf" futbol klubi bosh murabbiyi:



— So'nggi yillardagi katta e'tibor va amalga oshirilayotgan tashabbuslar futbolimiz rivojiga keng yo'l ochmoqda. Shu e'tibor taylorli futbolchilarimiz Olimpiadada ishtirok etish imkoniga ega bo'ldi va xalqimiz ko'p yillar orzu qilgan jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

O'zbekiston iqtidorli va iste'dodli futbolchilarga boy. Yangi stadion va markazlar orqali ularning salohiyati xalqaro maydonda namoyon bo'ladi. Prezidentimiz tashabbusi bu jarayonni yanada rivojlantirmoqda, har bir iqtidorli futbolchi uchun imkoniyatlar kengaymoqda.

Yangi stadion faqat bino emas, u yurt sharafiga, kelajak g'alabalarining ramzidir. Biz, murabbiylar va sportchilar bu imkoniyatdan samarali foydalanib, mamlakatimiz nomini xalqaro arenalarda yuksaltirishga bor kuch-g'ayratimiz bilan harakat qilamiz.

Bugun qurilayotgan zamonaviy sport shaharchasi va ayniqsa, zamonaviy stadion loyihasi nafaqat sportchilar, balki butun xalqimiz uchun katta quvonch manbai bo'lmoqda. Yangi stadion kelajak chempionlari uchun maydon, yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqaradigan maskan, millatimiz sharafini yuksaltirish ramzidir.

Ishonamanki, bu stadionda milliy chempionatlar, Osiyo va jahon miqyosidagi final uchrashuvlari ham o'tkaziladi. Milliy terma jamoamiz ushbu zamonaviy maydonda o'z muxlislari qo'llab-quvvatlovda katta g'alabalarni qo'lga kiritadi. Shu bilan birga, yosh futbolchilarimiz uchun ham zamonaviy infratuzilma va professional treninglar yaratilishi ularning salohiyatini to'liq ochishga yordam beradi.

O'zbekiston iqtidorli va iste'dodli futbolchilarga boy. Yangi stadion va markazlar orqali ularning salohiyati xalqaro maydonda namoyon bo'ladi. Prezidentimiz tashabbusi bu jarayonni yanada rivojlantirmoqda, har bir iqtidorli futbolchi uchun imkoniyatlar kengaymoqda.

Yangi stadion faqat bino emas, u yurt sharafiga, kelajak g'alabalarining ramzidir. Biz, murabbiylar va sportchilar bu imkoniyatdan samarali foydalanib, mamlakatimiz nomini xalqaro arenalarda yuksaltirishga bor kuch-g'ayratimiz bilan harakat qilamiz.

ISHONAMIZKI, BU STADION KELGUSI YILLARDA NAFQAT YURTIMIZ, BALKI BUTUN MINTAQA FUTBOLI RIVOJIDA MUHIM O'RIN TUTADI. SHUNINGDEK, BUGUNGI BUNYODKORLIK, ERTANGI MUVAFFAQIYATNING RAMZIGA AYLANADI.

POYDEVORI BUGUN, NATIJASI ERTAGA

Nuriddin MAHMUDOV, Milliy futbol markazi direktori:



— Bugun yurtimiz futbol sohasida yangi tarix yozilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Yangi Toshkent shahrida barpo etilayotgan 55 ming o'rinni zamonaviy stadion yangi inshoot bo'lishi bilan birga butun bir avlodning orzusi, kelajak g'alabalarining poydevori sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda bolalar futbolidan tortib, professional sportgacha bo'lgan jarayonda yagona tizim shakllandi. Bu orqali yosh avlod nafaqat sport mahoratini oshirmoqda, balki jamoaviy ishlash, intizom va iroda kabi zarur fazilatlarini ham o'rganmoqda.

55 ming o'rinni yangi stadion esa nafaqat milliy jamoamiz, balki professional klublarimiz uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Endi nufuzli xalqaro musobaqalarni yurtimizda o'tkazish, dunyo futbol elitasi bilan hamkorlik qilish imkoni

paydo bo'lmoqda. Bu orqali mamlakatimizda sport turizmi, zamonaviy tadbirlar madaniyati ham rivojlanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi to'rt yilda davlatimiz rahbari tomonidan futbol sohasiga doir beshta hujjat imzolandi. Har bir hujjat

amalda yangi bosqichni boshlab berdi: bolalar futbol, ayollar futbol, murabbiylar tayyorlash va zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirishda katta natijalarga erishildi.

Bu qarorlar va yangi stadion qurilishi O'zbekiston futbol tarixida yangi sahifani ochayotgan ulkan qadamdir. Zero, bugun qo'yilayotgan poydevor ertangi g'alabalarining asosi bo'ladi. Chunki futbol faqat maydondagi o'yin emas, balki xalqni birlashtiradigan, yoshlarni ilhomlantiradigan, millat sharafini oliy pog'onalariga olib chiqadigan kuchdir.

Ishonamizki, bu stadion kelgusi yillarda nafaqat yurtimiz, balki butun mintaq futbol rivojida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, bugungi bunyodkorlik, ertangi muvaffaqiyatning ramziga aylanadi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Sardor TOLLIBOYEV yozib oldi.